

“TASDIQLANGAN”

“Mikrokreditbank”
aksiyadorlik-tijorat banki
Aksiyadorlarining navbatdagi yillik
umumiy yig'ilishining
2025-yil “27” iyun dagi
4 -sonli bayonnomasi bilan

Yig'ilish raisi



B. Radjabov

“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining
Axborot siyosati
(yangi tahrirda)

“MA'QULLANGAN”

“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki
Kuzatuv kengashi majlisining
2025-yil “25” iyun dagi 21 -sonli bayonnomasi bilan
Kuzatuv kengashi raisi



B. Zaxidov

Boshqaruvning
2025-yil “25” iyun dagi 100 -sonli qarori bilan
Boshqaruv raisi v.b.



O. Butayev

Toshkent – 2025-yil

1-bob. Umumiy qoidalar

1. "Mikrokreditbank" aksiyadorlik tijorat bankining Axborot siyosati (keyingi o'rinlarda – Siyosat) O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi, "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi, "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Bank siri to'g'risida"gi, "Tijorat siri to'g'risida"gi, "Davlat sirlarini saqlash to'g'risida"gi, "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi, "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-sonli "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi hamda 2022-yil 14-iyundagi PF-154-sonli "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-iyundagi PQ-4366-son "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 2-iyuldagi 176-son "Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, "Qimmatli qog'ozlar bozorida axborot taqdim etish va e'lon qilish qoidalar" (ro'yxat raqami 2383, 2012-yil 31-iyul), "Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to'g'risida Nizom" (ro'yxat raqami 3254, 2020-yil 30-iyun), Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasining 2015-yil 31-dekabrda 9-sonli majlis bayoni bilan tasdiqlangan Korporativ boshqaruv kodeksi va O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2023-yil 23-iyundagi 145-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun korporativ boshqaruv qoidalar" tavsiyalari, "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat bankining Ustavi va boshqa ichki qoidalariga asosan ishlab chiqilgan.

2. Ushbu Siyosat "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki (keyingi o'rinlarda – bank) tomonidan axborotni oshkor qilishning asosiy maqsadlari, tamoyillari, shakllari, usullari, tartibi va muddatlarini belgilaydi.

3. Siyosat bank faoliyatining barcha turlariga nisbatan tatbiq etiladi va bankning barcha tarkibiy bo'linmalari, mansabdor shaxslari, xodimlari va boshqa manfaatdor shaxslari tomonidan qo'llanilishi majburiydir.

4. Mazkur Siyosatda ko'rsatilgan axborotni oshkor qilish talablari bankning muhim axboroti maxfiyligini buzmasligi va bank iqtisodiyotning davlat hamda xususiy sektoridagi raqobatchilariga nisbatan foyda bermaydigan ahvolga solib qo'yimasligi lozim.

5. Ushbu Siyosat davlat sirlarini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlar bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solmaydi.

6. Bank aktivlarining axborot xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq munosabatlar Siyosat bilan tartibga solinadi.

7. Ushbu Siyosatni amalga oshirish doirasida axborotni oshkor qilishning ichki tartib-taomillari, bankning ichki qoidalari va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan belgilanadi.

8. Ushbu Siyosatda quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

manfaatdor shaxslar – bank faoliyatidan manfaatdor shaxslar, xususan bank aksiyadorlari, bankning potensial investorlari, qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilari; qonun normalariga, tuzilgan shartnomalarga (kontraktlarga) tayanib bilvosita (bevosita) ta'sir ko'rsatadigan yoki ta'sir qilishi mumkin bo'lgan jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar, jismoniy yoki yuridik shaxslarning guruhlari. Bank aksiyadorlari, xodimlari, mijozlari, yetkazib beruvchilar, davlat organlari va tartibga soluvchi tashkilotlar, sho'ba va uyushgan xo'jalik yurituvchi subyektlar, kreditorlar, investorlar, jamoat tashkilotlari, shuningdek, Bank faoliyatini yuritayotgan hududlarning aholisi manfaatdor shaxslarning asosiy vakillari bo'lishi mumkin;

axborot – manbalari va taqdim etilish shaklidan qat'i nazar shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

oshkor qilinishi majburiy axborot – amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq oshkor qilinadigan ma'lumotlar;

mas'ul shaxslar – bank faoliyati to'g'risidagi axborotni e'lon qiladigan va sharhlaydigan bank boshqaruvi a'zolari va xodimlari;

konfidensial axborot – davlat siriga kiruvchi axborotni o'z ichiga olmagan, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq foydalanish imkoniyati cheklangan, uchinchi shaxslarga noma'lum bo'lganligi tufayli haqiqiy yoki potensial tijorat qiymatiga ega bo'lgan (jumladan, tarqatilishiga cheklov xizmat zaruriyatiga ko'ra belgilanadigan axborot), cheklangan doiradagi shaxslarga qonuniy asosda erkin foydalanish imkoni berilgan axborot;

sharhlar berish – jismoniy va yuridik shaxslarning yoxud boshqa manfaatdor shaxslarning, shuningdek, ommaviy axborot vositalari vakillarining og'zaki va yozma so'rovlariga javoblar berish;

axborotni oshkor qilish – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida, bank Ustavida, Korporativ boshqaruv kodeksida, "Toshkent" respublika fond birjasining listing talablarida yoki xorijiy fond birjasining amaldagi talablari va bankning boshqa ichki hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda, usullar va shakllarda barcha manfaatdor taraflar uchun axborotdan erkin foydalanish imkoniyatini ta'minlash;

ommaviy axborot vositalari – ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo'lgan hamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqalar) va (yoki) elektron tarzda (tele-, radio-, video-, kinoxronikal dasturlar, Internet jahon axborot tarmog'idagi veb-saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan (bundan buyon matnda chiqariladigan deb yuritiladi), qonunchilikda belgilangan tartibda ro'yxatga olingan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari.

2-bob. Siyosatning maqsadi va vazifalari

9. Mazkur Siyosatning asosiy maqsadi – aksiyadorlar, investorlar, qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilari, shuningdek, boshqa manfaatdor shaxslarning bank va uning faoliyati to'g'risidagi ishonchli axborotga bo'lgan

ehtiyojlarini qondirish orqali bank faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlashdan iborat.

10. Bank axborotni quyidagi maqsadlarda oshkor qiladi:

manfaatdor shaxslarning bank va uning faoliyati to'g'risidagi ishonchli axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish orqali bank faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash;

bankning yaxshi korporativ boshqaruv standartlariga amal qilishga tayyorligini tasdiqlash;

bankning ijobiy imijini shakllantirish va saqlash.

11. Siyosat manfaatdor shaxslarning bank va uning faoliyati to'g'risida, ularning investitsiyaviy va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim bo'lgan ishonchli ma'lumotlarni olish, shuningdek, bank to'g'risidagi maxfiy ma'lumotlarni himoya qilish huquqlarini to'liq amalga oshirishga qaratilgan.

12. Siyosat quyidagi vazifalarni bajarish bilan ta'minlanadi:

biznes jarayonlarining yuqori sifatini ta'minlash maqsadida bank axborot aktivlarining yaxlitligini ta'minlash;

biznes jarayonlarini qo'llab-quvvatlash uchun bank axborot aktivlarining uzluksiz mavjudligini ta'minlash;

axborot texnologiyalari bilan ishlashda bank va boshqa shaxslar axborotining maxfiyligini ta'minlash.

13. Axborotni tijorat siri sifatida tasniflash tartibi, unga kirish ta'riflari va shartlari "Tijorat siri to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni va boshqa qonunchilikka muvofiq bank tomonidan belgilanadi.

3-bob. Siyosatning asosiy tamoyillari

14. Axborot resurslarining haqqoniyligi, to'liqligi, shaffofligi, dolzarbligi, bog'liqligi, muntazamligi, tezkorligi, hujjatlar bilan tasdiqlanganligi, foydalanishga ochiqligi, xolisligi, izchilligi, teng huquqliligi, muvozanatlanganligi, himoyalanganligi Siyosatning asosiy tamoyillari hisoblanadi va ularning ta'rifi quyidagilardan iborat:

haqqoniylik tamoyili – bank tomonidan o'z aksiyadorlari va boshqa manfaatdor shaxslarga haqiqatga mos keladigan ma'lumotlarni taqdim etishi, shuningdek, tarqatilayotgan ma'lumotlarning qasddan buzilmasligi va noto'g'ri bo'lmasligini ta'minlash uchun barcha oqilona choralarni ko'rishdir;

to'liqlik tamoyili – bank tomonidan aksiyadorlar va boshqa manfaatdor shaxslar tomonidan bankdagi ishlarning haqiqiy holati to'g'risida xolisona va to'liq tasavvur yaratish uchun yetarli bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etishi (maxfiy ma'lumotlar bundan mustasno);

shaffoflik tamoyili – bank faoliyati to'g'risidagi to'liq va ishonchli axborotni aksiyador(lar)ga va boshqa manfaatdor shaxslarga oshkor qilishni ta'minlaydi;

dolzarblik tamoyili – bank tomonidan oshkor qilingan ma'lumotlarning bank faoliyatiga tegishli ekanligini bildiradi;

bog'liqlik tamoyili – bank tomonidan oshkor qilinadigan ma'lumotlarning xronologik tartibda keyingi foydalanish va tahlil qilish uchun taqdim etishning bir xil yondashuvlari va tamoyillaridan foydalangan holda tuzilganligini anglatadi;

muntazamlik tamoyili – qonunchilik va bankning ichki **qoidalari** talablari asosida aksiyadorlar va boshqa manfaatdor shaxslarga axborotning doimiy va tizimli ravishda oshkor etilishini ta'minlaydi;

tezkorlik tamoyili – bankning moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga ta'sir etuvchi, shuningdek, uning manfaatlariga daxldor bo'lgan muhim voqea va faktlar to'g'risida aksiyador(lar)ni hamda boshqa manfaatdor shaxslarni imkon qadar qisqa muddatda xabardor qilishni ta'minlashga qaratilgan;

hujjatlar bilan tasdiqlanganlik tamoyili – bank tomonidan oshkor qilingan ma'lumotlarning hujjatlar va real voqealarga asoslanganligini bildiradi;

foydalanishga ochiqlik tamoyili – bankning o'z faoliyati to'g'risidagi axborotni tarqatish kanallari va vositalaridan foydalanishini bildiradi. Bu manfaatdor shaxslarning oshkor etilgan ma'lumotlardan erkin, oson, tanlanmagan va eng kam xarajatli foydalanishini ta'minlaydi;

xolislik tamoyili – bankning o'z faoliyatini yoritishda o'z faoliyati to'g'risidagi aksiyador(lar) va boshqa manfaatdor tomonlar uchun ahamiyatli bo'lgan salbiy ma'lumotlarni oshkor etishdan bosh tortmasligini bildiradi;

izchillik tamoyili – bank tomonidan oshkor qilingan ma'lumotlarning shunga o'xshash yoki tegishli masalalar bo'yicha ilgari qilingan ma'lumotlarga barcha muhim jihatlari bo'yicha mos kelishini anglatadi;

teng huquqlilik tamoyili – bankning barcha aksiyadorlarga va boshqa manfaatdor shaxslarga bank faoliyati to'g'risidagi axborotni olish va undan foydalanishda teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashini bildiradi, bundan qonunchilikda va bankning ichki hujjatlarida nazarda tutilgan hollar mustasno;

muvozanat tamoyili – aksiyadorlar va boshqa manfaatdor shaxslarning ma'lumotlarni olish huquqini maksimal darajada amalga oshirish maqsadida, lekin bank manfaatlariga qat'iy rioya qilgan holda bir tarafdin bankning axborotni oshkor etishdagi ochiqligi va shaffofligi hamda ikkinchi tarafdin, uning tijorat manfaatlari va ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasining "Bank siri to'g'risida"gi Qonuni talablariga rioya etilishi o'rtasidagi oqilona mutanosiblikni nazarda tutadi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida va bankning ichki hujjatlarida belgilangan konfidensial axborotni muhofaza qilish hamda insayder ma'lumotlarini tarqatish va undan foydalanish qoidalarga rioya qilish buning majburiy shartlari hisoblanadi;

himoyalanganlik tamoyili – axborotni oshkor qilish va (yoki) uzatish tartibini buzish natijasida moddiy va nomoddiy zarar yetkazilishining oldini olish maqsadida, bank, tijorat yoki boshqa sirni yoki maxfiy hisoblangan axborotni tashkil etuvchi axborotni oshkor qilishning qonunchilikda ruxsat etilgan usullari va vositalaridan foydalanishni nazarda tutadi.

4-bob. Siyosatni amalga oshirish qoidalari

15. Siyosatni amalga oshirish uchun bank:

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, bank Ustavi, amaldagi listing qoidalari va bankning ichki hujjatlari talablariga, shuningdek, Korporativ boshqaruv kodeksi va Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun korporativ boshqaruv qoidalari tavsiyalariga muvofiq oshkor etilishi majburiy bo'lgan axborot (ma'lumotlarning)ning hisobini yuritadi;

axborotni oshkor qilish tartibini belgilaydi;

oshkor etilishi (topshirishi, sizib ketishi) bank manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan bankning maxfiy ma'lumotlarini tashkil etuvchi ma'lumotlar ro'yxatini va rioya etilishi konfidensial axborotning saqlanishini ta'minlashga yordam beradigan zarur choralarni belgilaydi;

axborotni tarqatish usullari, shakllari va tartibini belgilash, shuningdek, oshkor etilishi lozim bo'lgan axborotni tayyorlash va tarqatish uchun mas'ul shaxslarni belgilash yo'li bilan bank to'g'risidagi axborotning tarqalishi ustidan nazorat tizimini o'rnatadi;

bank boshqaruv organlari, bank mansabdor shaxslari va xodimlarining bank to'g'risidagi ma'lumotlarning tegishli tarzda oshkor etilishini va maxfiy ma'lumotlarning saqlanishini ta'minlash bo'yicha vakolatlari va javobgarligini belgilaydi;

ushbu Siyosatni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash maqsadida, yagona axborot makonini shakllantiradi, bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali bank ichida ham, undan tashqarida ham uzatiladigan axborot ustidan nazoratni ta'minlaydi.

16. Investitsion jozibadorlikni oshirish doirasida bank o'z ishini Korporativ boshqaruv kodeksi va Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun korporativ boshqaruv qoidalarining asosiy tamoyillariga asoslanib, qo'shimcha ma'lumotlar, tushuntirishlar va bankdagi ishlarning joriy holati, bank faoliyatini moliyaviy tahlil qilish, asoslangan investitsiya qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar bo'yicha sharhlar, rasmiy ma'lumotlarni taqdim etish orqali aksiyador(lar) va boshqa manfaatdor shaxslar bilan doimiy ravishda bevosita muloqotni davom ettirishga intiladi.

17. Aksiyador(lar) va boshqa manfaatdor shaxslar uchun muayyan ma'lumotlar, jumladan, ushbu Siyosatda ko'rsatilgan va bankning ixtiyoriga ko'ra boshqa qo'shimcha ma'lumotlar bankning internet tarmog'idagi www.mkbank.uz rasmiy veb-saytida "Aksiyadorlar va investorlar" bo'limida va boshqa tegishli ma'lumotlar bo'limlarida davlat, rus va ingliz tillarida joylashtiriladi.

18. Axborot siyosatini amalga oshirish uchun bank mansabdor shaxslari bankka o'zlari va ularning affillangan shaxslari to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek, bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga rioya etishi uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etishlari shart. Taqdim etilgan ma'lumotlar o'zgargan taqdirda, mansabdor shaxslar bankning ichki hujjatida belgilangan tartibda va muddatlarda ushbu o'zgarishlar to'g'risida darhol bankni xabardor qilishi shart.

5-bob. Axborotni oshkor qilish usullari va shakllari

19. Axborotni oshkor qilish shakllari bank tomonidan barcha manfaatdor shaxslarning oshkor qilinayotgan ma'lumotlardan erkin va oqilona foydalanishini ta'minlaydigan tarzda tanlanadi.

20. Bank va uning faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar quyidagi usullar va shakllarda oshkor etilishi mumkin:

ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish;

bankning rasmiy veb-saytida joylashtirish;

korporativ axborot yagona portalida (qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytida), shuningdek,

vakolatli tartibga solish xizmatlari va/yoki bank Qimmatli qog'ozlari muomalada bo'lgan milliy va xalqaro fond birjalarining organlari orqali;

davriy nashrlarga joylashtirish;

risolalar va bukletlarda ma'lumotlarni nashr etish;

aksiyador(lar) va boshqa manfaatdor shaxslar bilan intervyular, matbuot anjumanlari va uchrashuvlar hamda boshqa ommaviy tadbirlar o'tkazish;

investorlar, tahlilchilar, ommaviy axborot vositalari vakillarining bankka tashriflarini tashkil etish;

aksiyador(lar)ga va boshqa manfaatdor shaxslarga ularning tegishli hamda qonuniy talabiga binoan axborot (hujjatlar) bilan tanishish va ularning nusxalarini tarqatish;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa usullar va shakllarda.

21. Bank aksiyador(lar) va boshqa manfaatdor shaxslar bilan muloqot qilishning quyidagi usullaridan ham foydalanishi mumkin:

bank vakillarining shaxsiy ishtirokida ham, masofaviy kanallardan foydalangan holda ham yakkama-yakka individual va guruh uchrashuvlar;

xalqaro va milliy moliyaviy va investitsiya konferensiyalari;

roud-shoular, taqdimotlar, saytga tashriflar;

audio/video konferensiya qo'ng'iroqlari;

muntazam qo'ng'iroqlar/elektron pochta orqali so'rovlarga javoblar.

22. Bank manfaatdor shaxslariga quyidagilardan foydalanish imkoniyatini ta'minlashi lozim:

ommaviy bayonotlar;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va amaldagi talablariga muvofiq oshkor etilishi shart bo'lgan bankning asosiy ma'lumotlari;

bank taqdimotlari (agar mavjud bo'lsa);

korporativ boshqaruvga, jumladan, Bank Kuzatuv kengashiga doir hujjatlar.

23. Bank o'z faoliyatining shaffofligi va ochiqqligini ta'minlash uchun har choraklik va yillik hisobotni, shuningdek, "rioya qil yoki tushuntir" tamoyili bo'yicha tavsiyalarni bajarishni, qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan muhim faktlarni va boshqa ma'lumotlarni (maxfiy ma'lumotlardan tashqari) hamda har qanday muhim voqealar yoki muhim korporativ o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilishni amalga oshiradi.

6-bob. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq oshkor etilishi majburiy bo'lgan ma'lumotlar

24. Bank majburiy oshkor etilishi shart bo'lgan ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi, "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6247-sonli hamda 2022-yil 14-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik



darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-154-sonli Farmonlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 2-iyuldagi 176-son "Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, "Qimmatli qog'ozlar bozorida axborot taqdim etish va e'lon qilish qoidalari" (ro'yxat raqami 2383, 2012-yil 31-iyul) va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan belgilangan hajmlarda, muddatlarda va usullarda oshkor qiladi.

25. Bank majburiy oshkor etilishi shart bo'lgan ma'lumotlarni quyidagi manbalarda amalga oshiradi:

Korporativ axborot yagona portalida (Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining rasmiy veb-sayti);

"Toshkent" respublika fond birjasining rasmiy veb-saytida (www.uzse.uz);

bankning rasmiy veb-saytida (www.mkbank.uz);

O'zbekiston Respublikasining ochiq ma'lumotlar portalida;

davlat xaridlarining maxsus axborot portalida;

ommaviy axborot vositalarida.

26. Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining, fond birjasining rasmiy veb-saytida, bankning rasmiy veb-saytida majburiy oshkor etilishi shart bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjatlar quyidagilardir:

qimmatli qog'ozlarni chiqarish (emissiya) risolasi (qimmatli qog'ozlarni ommaviy joylashtirishda);

bankning qonunchilik talablariga javob beradigan shaklda tuzilgan, jumladan, moliyaviy hisobot xalqaro standartlariga muvofiq tuzilgan, auditorlik tekshiruvidan o'tgan yillik moliyaviy hisobotlarni o'z ichiga olgan yillik hisoboti;

bankning hisobot yilining birinchi choragi, birinchi yarmi va to'qqiz oyi yakunlari bo'yicha hisoboti;

bank faoliyatidagi muhim fakt haqida xabarlar;

boshqa majburiy axborot va ma'lumotlar.

Bank yuqoridagi ma'lumotlarni "Qimmatli qog'ozlar bozorida axborot taqdim etish va e'lon qilish qoidalari"da (ro'yxat raqami 2383, 2012-yil 31-iyul) belgilangan muddatlarda, tartibda va shaklda oshkor qiladi.

27. Bankning qimmatli qog'ozlari fond birjasining birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan va (yoki) avvaldan mavjud bo'lgan taqdirda, bank listing talablariga muvofiq barcha zarur ma'lumotlarni oshkor qiladi. Bankning qimmatli qog'ozlari fond birjasi birja kotirovkalash varag'ida mavjud bo'lmagan taqdirda, bank oshkor etilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar ro'yxatini o'zining rasmiy veb-saytida oshkor etilishda listing talablariga maksimal darajada rioya qilishga intiladi.

28. Bank rasmiy veb-saytida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-sonli "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2022-yil 14-iyundagi PF-154-sonli "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari

hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 2-iyuldagi 176-son "Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilangan ma'lumotlarning oshkor etilishini ta'minlaydi.

29. Quyidagi ma'lumotlar ommaviy axborot vositalarida majburiy oshkor etilishi shart:

bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida xabar;

bankning joylashgan yeri (pochta manzili) va elektron pochta manzili o'zgarganligi to'g'risida xabar;

imtiyozli huquqqa ega bo'lgan bank aksiyadorlariga aksiyalarni yoki aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiya qilinayotgan qimmatli qog'ozlarni sotib olish, chiqarish bo'yicha taklif;

bank tomonidan aksiyalarni qaytarib sotib olish to'g'risidagi ma'lumotlar;

bank tugatilganligi, shuningdek, uning kreditorlari tomonidan talablar qo'yish tartibi va muddatlari to'g'risidagi ma'lumotlar;

bankning ichki qoidalariga muvofiq majburiy oshkor etilishi shart bo'lgan boshqa ma'lumotlar.

7-bob. Bankning rasmiy veb-saytida qo'shimcha ma'lumotlarni oshkor qilish ro'yxati va tartibi

30. Bankning rasmiy veb-sayti yaxshi tuzilgan, alohida tematik bo'limlarda joylashtirilgan ma'lumotlarga ega bo'lishi va barcha manfaatdor shaxslar uchun ochiq bo'lishi lozim. Rasmiy veb-sayt zaruratga qarab, lekin haftada kamida bir marta yangilanadi.

31. Bank o'z rasmiy veb-saytda joylashtirilgan ma'lumotlarning to'liqligi va dolzarbligi, shuningdek, rasmiy veb-saytning davlat, rus, ingliz tilidagi versiyalarida joylashtirilgan ma'lumotlarning muvofiqligi muntazam ravishda nazorat qilib borilishi lozim. Shu bilan birga, rasmiy veb-saytning ingliz va rus tillaridagi versiyasini yaratish, ma'lumotlar bilan to'ldirish va yuritish bank faoliyatiga ortiqcha yuk yuklanishiga olib kelmasligi lozim. Bankda rasmiy veb-saytdagi ma'lumotlarning to'liqligi va dolzarbligi uchun mas'ul shaxslar (tarkibiy bo'linma) javobgar hisoblanadi.

32. Bankning rasmiy veb-sayti kamida quyidagi qo'shimcha axborotni o'z ichiga olishi lozim:

bank to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar, jumladan, missiyasi, asosiy vazifalari, maqsadlari va faoliyatining ustuvor yo'nalishlari, tashkiliy tuzilmasi va boshqaruv tuzilmasi, Kuzatuv kengashi va Kuzatuv kengashi qo'mitalari tarkibi, Boshqaruv tarkibi, xodimlar soni to'g'risidagi ma'lumotlar, bank faoliyatining moliyaviy va operatsion natijalari;

bankning Ustavi, shu jumladan, unga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar;

bankni rivojlantirish strategiyasi (kamida, strategik maqsadlar, jumladan, bank tomonidan amalga oshiriladigan davlat siyosatining individual maqsadlari) va uni amalga oshirish to'g'risidagi ma'lumotlar;

asosiy moliyaviy va nomoliyaviy faoliyat ko'rsatkichlarini ochib berish orqali maqsadlarga erishish natijalari, bank bir-biriga zid bo'lishi mumkin bo'lgan maqsadlar o'rtasida murosani qanday topishi haqidagi ma'lumotlar;

boshqaruv organlari, Kuzatuv kengashi qo'mitalari, ichki audit xizmati va korporativ maslahatchi faoliyatini tartibga soluvchi ichki hujjatlar;

Korporativ boshqaruv kodeksi va Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun korporativ boshqaruv qoidalari, shuningdek, ularning tavsiyalariga rioya qilish majburiyatini qabul qilish va unga rioya qilish to'g'risidagi ma'lumotlar;

bankning Axborot va Dividend siyosatlari;

axloqiy tamoyillar haqida ma'lumot;

korruptsiyaga qarshi kurash bo'yicha asosiy hujjatlar;

korruptsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha bank Boshqaruv raisining murojaati;

tavakkalchiliklarni boshqarish ma'lumotlari, har qanday muhim prognoz qilinadigan xavf omillari va bunday xavflarni boshqarish bo'yicha ko'rilgan choralar to'g'risidagi ma'lumotlar;

audit o'tkazish tartibini va auditorlik tashkiloti bilan munosabatlarni tartibga soluvchi hujjatlar;

Kuzatuv kengashi a'zolari to'g'risidagi ma'lumotlar, jumladan, quyidagi ma'lumotlar: fotosurat (Kuzatuv kengashi a'zosi bilan kelishilgan holda), familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi, fuqaroligi, Kuzatuv kengashi a'zosining maqomi (mustaqil a'zo, aksiyadorning vakili), Kuzatuv kengashi a'zosining funksiyalari, jumladan, Kuzatuv kengashi qo'mitalari a'zoliigi yoki Kuzatuv kengashi raisi vazifasini bajaruvchisi, ta'lim, jumladan, asosiy va qo'shimcha ta'lim (ta'lim muassasasining nomi, bitirgan yili, malakasi, olingan darajasi), oxirgi besh yildagi ish tajribasi, asosiy ish joyi va boshqa amaldagi lavozimlari, jumladan, boshqa tijorat va notijorat tashkilotlarining Kuzatuv kengashlarida egallab turgan lavozimlari, kasbiy malakalari, Kuzatuv kengashiga birinchi saylov va amaldagi Kuzatuv kengashiga saylangan sana, bank aksiyalariga ega emasligi yoki aksiyalarning soni va ulushi;

Boshqaruv a'zolari to'g'risidagi ma'lumotlar, jumladan, quyidagi ma'lumotlar: fotosurati, familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi, fuqaroligi, lavozimi va bajargan funksiyalari, ma'lumoti, jumladan, asosiy va qo'shimcha ta'lim (ta'lim muassasasining nomi, bitirgan yili, malakasi, olingan daraja), so'nggi besh yildagi ish tajribasi, kasbiy malakasi, o'rindoshlik bo'yicha egallab turgan lavozimlari, bank aksiyalariga ega emasligi yoki aksiyalarning soni va ulushi;

qonunchilik va yillik hisobotlarning mazmunini tartibga soluvchi bankning ichki hujjatlari talablariga javob beradigan, shuningdek, ilg'or xalqaro tajribani hisobga olgan holda tuzilgan bankning yillik hisobotlari;

Xalqaro audit standartlariga muvofiq o'tkazilgan audit bo'yicha auditorlik hisobotlari va o'tgan davrlar uchun Moliyaviy hisobot xalqaro standartlariga muvofiq tuzilgan tegishli moliyaviy hisobotlar;

tasdiqlangan dividendlar miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar;

xaridlar faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar, jumladan, xaridlar qoidalari, rejasi, e'lonlar va xaridlar natijalari;

boshqaruv tuzilmasi, mulkchilik va ovoz berish huquqi to'g'risidagi ma'lumotlar, jumladan, davlat ulushidagi aksiyalarning egasi kim ekanligi va davlat ulushiga tegishli aksiyadorlik huquqlarini kim amalga oshirishi,

aksiyadorlarning tarkibi va ovoz berish huquqlarining taqsimlanishi, soni va ularga tegishli oddiy aksiyalarning ulushi;

barcha darajadagi sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlari bilan tashkiliy va korporativ aloqalarni aniq belgilashni o'z ichiga olgan aktivlar tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar, ularning faoliyat doirasi qisqacha ko'rsatilgan holda;

yirik bitimlar va (yoki) manfaatdorlik mavjud bitimlar, shuningdek, davlat va affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar to'g'risidagi ma'lumotlar, jumladan, ushbu bitimlarning bozor qiymati va maqsadga muvofiqligini baholash uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlar. Bunday ma'lumotlarga bitim taraflari, bitimning muhim shartlari (bitim predmeti, bitim narxi), maxfiylik rejimini buzmagani holda bitimni tasdiqlash to'g'risida qaror qabul qilgan organ to'g'risidagi ma'lumotlar kiradi;

barqaror rivojlanish faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar, jumladan, xodimlar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan bog'liq bo'lgan, bankning moliyaviy va nomoliyaviy faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan yoki manfaatdor tomonlarga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan asosiy masalalar, masalan, rahbariyat va xodimlar o'rtasidagi munosabatlar, boshqa manfaatdor tomonlar, masalan, mijozlar, kreditorlar, yetkazib beruvchilar va bank o'z xizmatlarini ko'rsatadigan hududlarning aholisi bilan munosabatlar to'g'risidagi ma'lumotlar. Oshkor qilingan ma'lumotlar, shuningdek, ijtimoiy, ekologik, inson huquqlari va korrupsiyaga qarshi choralarni amalga oshirishga oid har qanday jiddiy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi;

xayriya (homiylilik) yoki beminnat yordam ko'rsatish (qabul qilish) va ular to'g'risida qaror qabul qilish tartibi, shartlari, shuningdek, haqiqatda ko'rsatilgan (olingan) xayriya (homiylilik) yoki beminnat yordam to'g'risidagi ma'lumotlar;

korporativ tadbirlarning yillik taqvimini;

maxfiylik rejimini buzmagani holda aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarorlari;

Kuzatuv kengashi faoliyati, jumladan, Kuzatuv kengashi majlislarining soni, Kuzatuv kengashi a'zolarining majlislarda ishtirok etishi, kun tartibi/majlislarda ko'rib chiqilgan masalalar va ovoz berish natijalari bo'yicha qabul qilingan qarorlar, maxfiylik rejimini buzmagani holda;

Kuzatuv kengashi qo'mitalari faoliyati, jumladan, qo'mitalar va ularning tarkibi, majlislar soni, Kuzatuv kengashi a'zolarining majlislardagi ishtiroki, kun tartibi/majlislarda ko'rib chiqilgan masalalar va ovoz berish natijasida qabul qilingan qarorlar to'g'risidagi ma'lumotlar, maxfiylik rejimini buzmagani holda;

har qanday moliyaviy yordam, jumladan, davlatdan olingan kafolatlar, o'zaro majburiyatlar to'g'risidagi ma'lumotlar, moliyaviy yordam ko'rsatish mexanizmlari va davlat va bank o'rtasida tavakkalchilikni taqsimlash to'g'risidagi ma'lumotlar;

yangiliklar va press-revizlar;

bankning bo'lajak va o'tgan ommaviy tadbirlari (sessiyalar, yig'ilishlar, uchrashuvlar, matbuot anjumanlari, seminarlar va brifinglar, davra suhbatlari, rasmiy tashriflar) to'g'risidagi ma'lumotlar, kundalik faoliyati to'g'risidagi boshqa ma'lumotlar;

bankning boshqa davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, xorijiy va xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorligi to'g'risidagi ma'lumotlar;

bo'sh ish o'rinlari, ishga joylashish shartlari va nomzodlarga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi ma'lumotlar;

bankning axborot materiallaridan foydalanishda rasmiy veb-saytga havola ko'rsatish talabining mavjudligi;

saytdan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar, shuningdek, saytda mavjud atamalarning ma'nosi;

O'zbekiston Respublikasiga investitsiya kiritish to'g'risida qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan statistik va boshqa ma'lumotlar;

bank va uning tarkibiy va hududiy bo'linmalarining faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar, ularning telefon raqamlari va pochta manzillari, elektron pochta manzillari, ma'lumot xizmati va ishonch telefonlari raqamlari, sayohat yo'nalishlari, to'xtash joylari nomlari va jamoat transporti yo'nalishlari raqamlari;

arizalar, takliflar, shikoyatlarni qabul qilish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati to'g'risidagi axborotni olishda so'rovlarni qabul qilish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar;

kelib tushgan arizalar, takliflar, shikoyatlar, shuningdek, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyati to'g'risidagi axborotni olish bo'yicha so'rovlarni ko'rib chiqishning umumiy yakunlari to'g'risidagi ma'lumotlar;

ishonch telefoni to'g'risidagi ma'lumotlar — qonunchilik va/yoki bankning ichki hujjatlari buzilishi, jumladan, firibgarlik, korrupsiya, kamsitish, axloqsiz xatti-harakatlar va bank faoliyati bilan bog'liq boshqa huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash hamda oldini olish maqsadida murojaatlar uchun aloqa kanallari;

aksiyadorlarning yozma yoki elektron so'rovlari uchun aloqa ma'lumotlari/manzillari;

boshqa ochiq ma'lumotlar va bank rasmiy veb-saytida joylashtirishni zarur deb hisoblangan ma'lumotlar.

8-bob. Bank Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilingan qarorlar to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish

33. Bank aksiyadorlar va boshqa manfaatdor shaxslar e'tiboriga bank Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilingan qarorlar to'g'risidagi ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida, bank Ustavi, shuningdek, ushbu Siyosatda nazarda tutilgan ro'yxatda, hajmda, shakllarda va usullarda yetkazadi.

34. Axborotni bank aksiyadorlari va boshqa manfaatdor shaxslar e'tiboriga yetkazish tartibi va muddatlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, amaldagi listing talablariga va bank boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan ichki hujjatlarga muvofiq belgilanadi.

35. Agar bank Kuzatuv kengashining qabul qilingan qarori maxfiy bo'lsa, qabul qilingan qaror to'g'risidagi axborot, bankning tijorat manfaatlarini himoya qilish maqsadida e'lon qilinmaydi.

36. Agar bank Kuzatuv kengashining qarori bilan axborot maxfiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bo'lsa, ushbu qaror bo'yicha ma'lumotlar maxfiy axborotni oshkor etmasdan, cheklangan shaklda e'lon qilinadi.

9-bob. Axborotni oshkor qilish huquqi

37. Faqatgina bankning vakolatli xodimlari o'z vakolatlari doirasida ushbu Siyosat va bankning ichki hujjatlarida belgilangan tartibda bank nomidan ma'lumotlarni oshkor qilish va izohlar berishga haqli.

38. Bank Kuzatuv kengashining raisi Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilingan qarorlar yuzasidan rasman izoh berishga, shuningdek, Kuzatuv kengashi majlislarida ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan davlat, bank, xizmat, tijorat yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va bank tomonidan himoyalangan boshqa sirlarning butligini ta'minlash bo'yicha talablarga rioya etilishini hisobga olgan holda Kuzatuv kengashining nuqtai nazarini bildirishga haqli.

39. Bank Boshqaruv raisi bank faoliyati bilan bog'liq masalalar yuzasidan ommaviy chiqishlar qilishga haqli. Bank Boshqaruv raisi bankning ichki hujjatlarida belgilangan tartibda bank xodimlariga bank nomidan ommaviy so'zga chiqish (axborot taqdim etish) huquqini berishga haqli.

40. Bankning rahbar va boshqaruvchi xodimlari, tarkibiy bo'linmalar rahbarlari nazorat qilinadigan faoliyat yo'nalishlari/tuzilmaviy bo'linmalari bo'yicha joriy faoliyat masalalariga oid Boshqaruv raisi bilan kelishilgan holda va bu haqda bankning tashqi aloqalar uchun mas'ul tarkibiy bo'linmasini avvaldan xabardor qilgan holda bank nomidan ommaviy chiqishga haqli.

10-bob. Boshqaruv a'zolari, mansabdor shaxslar, bank xodimlarining aksiyadorlar va boshqa manfaatdor shaxslar bilan axborot almashish tartibi

41. Boshqaruv a'zolari, mansabdor shaxslar, xodimlarining aksiyadorlar va manfaatdor bilan axborot almashishi uchun bank axborot almashinuvi amalga oshiriladigan mas'ul tarkibiy bo'linmani (va/yoki alohida xodimni) belgilashi mumkin.

42. Bank aksiyador(lar)ning talabiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni va bank Ustaviga muvofiq, unga (ularga) bank hujjatlari bilan tanishish imkoniyatini taqdim etishi shart. Bank O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va bankning ichki qoidalariga muvofiq aksiyador so'ragan kundan boshlab 10 (o'n) bank ish kuni ichida talab etilgan axborotni (so'ralgan hujjatlarning nusxalarini) taqdim etishi shart.

43. Aksiyador(lar)ning va boshqa manfaatdor shaxslarning ushbu Siyosatda nazarda tutilgan ma'lumotlarni taqdim etish to'g'risidagi yozma (elektron) so'roviga ko'ra bankning tegishli tarkibiy bo'linmasi (o'z faoliyat yo'nalishi bo'yicha) barcha zarur ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida boshqacha muddat belgilanmagan bo'lsa, 7 (yetti) bank ish kuni davomida elektron shaklda taqdim etadi.

44. Hujjatlarning nusxalarini taqdim etganlik uchun bank tomonidan undiriladigan yig'im bank tomonidan belgilanadi va hujjatlar nusxalarini tayyorlash va hujjatlarni pochta orqali jo'natish bilan bog'liq xarajatlarni to'lash qiymatidan oshmasligi lozim.

45. Aksiyadorlar, bank mansabdor shaxslari, xodimlari va boshqa manfaatdor shaxslar (qonunchilikka muvofiq bank to'g'risida axborot olgan shaxslar) bank yoki uning faoliyati to'g'risidagi bank, xizmat, tijorat yoki

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan himoya qilinadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlarni oshkor qilishga haqli emas.

11-bob. Maxfiy axborotni himoya qilish

46. Bankning mansabdor shaxslari va xodimlari maxfiy ma'lumotlarning saqlanishiga doir barcha talablarga rioya etishlari, axborot butligining buzilishi ehtimoli uchun javobgar bo'lishlari, jumladan, ruxsatsiz oshkor qilish va/yoki maxfiy ma'lumotlar bilan tanishtirishga, ularni buzish yoki yo'q qilish, shuningdek, ularni uzatishga olib keladigan tasodifiy yoki qasddan qilingan harakatlarning oldini olishlari shart.

47. Bank O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va bankning ichki hujjatlari talablariga muvofiq maxfiy ma'lumotlarning muhofaza qilinishini ta'minlaydi. Bunday ma'lumotlardan foydalanish shartlari, shuningdek, uni olish imkoniyati bank tomonidan bankning ochiqqligi va uning manfaatlariga zarar yetkazmaslik istagi o'rtasidagi muvozanatni saqlash zarurligini hisobga olgan holda belgilanadi.

48. Maxfiy axborot sirasiga quyidagilar kirmaydi:

barchaga oshkor ma'lumotlar asosida tayyorlangan axborot;

ommaviy axborot vositalaridan olingan axborot;

manbasi noma'lum bo'lgan, shaxslarning keng doirasi o'rtasida tarqatilgan tasdiqlanmagan axborot, shuningdek, bankning joriy yoki rejalashtirilayotgan faoliyatiga oid taxminlar.

49. Maxfiy ma'lumotlarga ega bo'lgan shaxslar ro'yxati bankning xavfsizlik masalalari bo'yicha mas'ul tarkibiy bo'linmasi (Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish departamenti, Birinchi bo'lim) tomonidan shakllantiriladi va belgilangan tartibda yangilanadi.

50. Oshkor qilinadigan va maxfiy ma'lumotlarning ro'yxati, axborotni oshkor qilish hamda maxfiy axborot saqlanishini ta'minlash muddatlari va tartibi belgilangan tartibda ichki hujjatlar bilan belgilanadi.

51. Maxfiy axborotni o'z ichiga olgan hujjatlarni rasmiylashtirish, hisobga olish, nusxalab ko'paytirish, saqlash va boshqa muomala qilish tartibi belgilangan tartibda ichki hujjatlar bilan tartibga solinadi.

52. Boshqa yuridik shaxslar bilan o'zaro faoliyatda maxfiy ma'lumotlardan foydalanilganda yoki tegishli kelishuv va shartnomalarda bank maxfiy axborotni oshkor etmaslik to'g'risidagi bandlarni nazarda tutadi.

53. Bankning mansabdor shaxslari va xodimlari maxfiy ma'lumotlardan faqat bank manfaatlarini ko'zlab hamda ushbu Siyosat va bankning boshqa ichki hujjatlariga muvofiq foydalanishlari shart. Bank kontragentlari o'zlariga ma'lum bo'lib qolgan maxfiy axborotdan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, boshqa normativ hujjatlarga va bank kelishuvlariga muvofiq foydalanishlari shart.

54. Bank Boshqaruv a'zolari va xodimlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va bankning ichki hujjatlariga muvofiq axborotni oshkor qilish va saqlashning belgilangan tartibiga rioya etish majburiyatini imzolaydilar.

55. Bankning mansabdor shaxslari, xodimlari va kontragentlari tomonidan maxfiy axborotdan foydalanish tartibini ta'minlash maqsadida bank maxfiy axborotni noto'g'ri foydalanishdan himoya qilishga qaratilgan maxsus tartiblarni joriy etishga haqli. Ushbu tartib-qoidalar quyidagilar uchun joriy etiladi:

konfidensial axborotdan foydalanish tartibiga rioya etilishini, jumladan, bankning mansabdor shaxslari va xodimlari hamda uchinchi shaxslar tomonidan maxfiy axborotga noqonuniy kirishni va ulardan bank manfaatlariga zid ravishda foydalanishni istisno qilish orqali ta'minlash;

aksiyadorlar, investorlar, hamkorlar va boshqa manfaatdor tomonlar tomonidan bankka ishonch darajasini oshirish.

12-bob. Siyosatga rioya etilishi ustidan nazoratni ta'minlash chora-tadbirlari

56. Ushbu Siyosatda nazarda tutilgan ma'lumotlarning ommaviy axborot vositalarida oshkor etilishi uchun bankning ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar uchun tegishli tarkibiy bo'linmalari mas'ul hisoblanadi. Ya'ni tegishli tarkibiy bo'linmalar tomonidan ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish uchun beriladigan (bank siri bundan mustasno) ma'lumotlarni o'z vaqtida joylab borish Axborot xizmati xodimlari vazifasi hisoblanadi.

Bankning tegishli tarkibiy bo'linmalari rahbarlari (o'z qismida) axborotning o'z vaqtida, to'liq va ishonchli taqdim etilishi, oshkor etish bo'yicha o'z funksiyalarining lozim darajada bajarilishi va bank Axborot xizmati bilan o'zaro hamkorlikda ishlashga mas'uldirlar.

57. Ushbu Siyosatga muvofiq, axborotning to'liqligi, ishonchliligi va oshkor etilishining o'z vaqtida bajarilishi uchun javobgarlik bank Boshqaruvi zimmasiga yuklanadi.

58. Bank Kuzatuv kengashi bank faoliyatining natijalari to'g'risidagi bank Boshqaruvining yillik hisoboti doirasida har yili ushbu Siyosat talablarining ijrosi borasida bank Boshqaruvining hisobotini tinglaydi.

13-bob. Bankda PR (piar) faoliyati (Jamoatchilik bilan aloqalar)

59. PR (piar) (jamoatchilik bilan aloqalar) – bu bank va jamiyat o'rtasida o'zaro bir-birini tushungan holda samimiy munosabatlar o'rnatishga va do'stona muhitni shakllantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuidir.

60. Piarning asosiy vazifalaridan biri – bankning ijobiy imiji, obro'sini shakllantirish hisoblanadi. Ushbu tadbir asosan, aholi va mijozlar o'rtasida bankka nisbatan ishonchsizlik ortib borayotgan hollarda qo'llaniladi.

61. Bankda piar obyektlari – tashqi maqsadli auditoriya (aholi va mijozlar) hamda ichki maqsadli auditoriya (xodimlar va investorlar)ga bo'linadi.

Bankda quyidagi piar usullari va vositalaridan foydalanish mumkin:

ommaviy axborot vositalari orqali (bosma nashrlar, TV va radio, matbuot uchrashuvi va tadbirlar);

internet orqali (rasmiiy veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlar, blogerlar va onlayn ommaviy axborot vositalari);

ishbilarmonlik tadbirlari orqali (forumlar, konferensiya va seminarlar, yillik hisobotlar, ko'rgazma va ishbiarmonlik uchrashuvlari);

ijtimoiy loyihalar (homiyluk, xayriya, biznesning korporativ ijtimoiy mas'uliyati);

ijtimoiy tadbirlar (taqdirlash, qabullar, taqdimot, festival va tanlovlar).

62. Bankda quyidagi piar turlaridan foydalanish mumkin:

oq piar – bu piarning klassik turi hisoblanib, ijobiy o'zgarishlar va bank boshqalarning farovonligi haqida qayg'uradigan, atrofda yuz berayotgan hodisalarga befarq bo'lmagan jamiyatning bir qismi sifatida o'zini namoyon qilishning ajoyib usuli;

yashil piar – ekologiyani asrashga yoxud tabiatga tahdid soladigan har qanday narsa yoki harakatlarga qarshilik nuqtai nazaridan amalga oshiriladigan usuldir. Masalan, bank tomonidan iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash. Elektromobil uchun avtokredit va boshqalar;

sariq piar – sariq matbuotga o'xshab, matbuotdagi eng ishonchli janjallar va qaynoq faktlar orqali bank obro'sini oshirishga qaratilgan usuldir. Ushbu usuldan faqatgina ijobiy maqsadni ko'zlagan holda foydalanish mumkin.

63. Bankda qora piar turidan foydalanish taqiqlanadi.

Qora piar – uning maqsadi imkon qadar raqobatchilar obro'siga putur yetkazishni maqsad qilgan usuldir. Bu orqali raqobatchilarning obro'sini va sha'nini yerga urishga harakat qilinadi.

Bundan tashqari, bank faoliyatida kulrang, xaki va boshqa har qanday rangdagi piar turlaridan foydalanish man qilinadi.

64. Har qanday piar faoliyati davomida bank yoki uning mijozi yoxud jismoniy shaxs obro'si, sha'niga putur yetkazishga yo'l qo'yilmaydi.

65. Piar faoliyatini amalga oshirishda qonun hujjatlari va ushbu Siyosatda belgilangan talablarga qat'iy rioya qilish majburiydir.

14-bob. Yakuniy qoidalar

66. Ushbu Siyosatga muvofiq oshkor etilgan ma'lumotlarning tashkil etilishi, holati va haqqoniyligi uchun javobgarlik bank Boshqaruvi zimmasiga yuklanadi.

67. Bank Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra, axborotning o'z vaqtida, sifatli, ishonchli va to'liq oshkor etilishi bank Boshqaruvi faoliyati samaradorligini baholashning asosiy mezonlaridan biri va unga haq (bonuslar) to'lash sharti bo'lishi mumkin.

68. Axborotni oshkor qilish jarayonida bankka zarar yetkazilgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, bank Ustavi, ushbu Siyosat va bankning ichki hujjatlari buzilgan taqdirda, aybdor shaxslar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishi mumkin.

69. Ushbu Siyosat bilan tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, bank Ustavi, amaldagi listing talablari, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, bank Kuzatuv kengashi qarorlari va bankning belgilangan tartibda qabul qilingan ichki hujjatlari bilan tartibga solinadi.

70. Ushbu Siyosatning ayrim bndlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga yoki bank Ustaviga kiritilgan o'zgartirishlar natijasida ularga zid kelib qolsa, ushbu Siyosat talablari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga yoki bank Ustaviga zid bo'lmagan darajada qo'llaniladi. O'z kuchini yo'qotgan bndlari bo'yicha va ushbu bndlari bilan tartibga solinadigan masalalar borasida ushbu Siyosatga tegishli o'zgartirishlar kiritilgunga qadar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va/yoki bank Ustavi normalariga amal qilish lozim.

71. Ushbu Siyosat bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi qarori bilan tasdiqlanib, o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

72. Ushbu Siyosat kuchga kirgan kundan boshlab bank Aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiy yig'ilishining 2022-yil 27-iyundagi 4-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat bankining Axborot siyosati" o'z kuchini yo'qotadi.

73. Ushbu Siyosatga keyinchalik o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish hamda bekor qilish, shuningdek ushbu Siyosatni yangi tahrirda tasdiqlash vakolati Kuzatuv kengashiga beriladi.

